



ZAHRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING SARKARDALIK FAOLIYATI VA HARBIY YURISHLARI

Yo‘ldosheva Indira Faxriddin qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tarix yo‘nalishi 1-kurs talabasi

[Tel:+998906594703](tel:+998906594703)

Yoldashevaindira795@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Parmonov Sharofiddin**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“O‘zbekiston tarixi” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahriddin Muhammad Boburning sarkardalik faoliyatida olib borgan harbiy yurishlari, Uning juda erta katta hayotga kirishi, hindiston va boshqa ulkan hududlarga qilgan harbiy yurishlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Chingiziylar, Temur Tuzuklari, “Boburnoma”, Aysi qo‘rg‘oni, yolg‘onchi beklari, Hindiston yurishi 3 omili.

Prezidentimiz aytganidek, hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu ilm-fan, ta‘lim va tarbiyadir. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda buyuk shaxslar bilan ko‘proq tanishib ularni ijobiy taraflaridan ruhiy quvvat olishimiz darkordir. Ulardan biri Zahiriddin Muhammad Boburni buyuk sarkardalik shohsupasiga ko‘targan asosiy omillar quyidagilardan iborat bo‘lgan edi. Avvalo, uning qonida ota va ona tomonidan ham ulug‘likka borib tutashadigan chinordek baquvvat ildiz mavjud edi. Katta bobolari bo‘lmish ota tomondan Amir Temur Sohibqironga borib tutashsa, ona tarafdan mustahkam tomir Chingizxon va Chingiziylarga



borib taqalar edi. Bu etnogenez omillar bo'lsa, ikkinchi tarafdin esa o'n ikki yoshdan toj kiyish qismatini bildirar edi. Zahriddin Muhammad Boburni ushbu toju-taxtini turli g'animlar, jumladan ichki, shuningdek tashqi maydondagi tahdid qiluvchi kuchlarga qarshi kurash 159 yosh vorisni jang maydonida qilich serdashga undadi. Bir tomondan o'spirinlikdan yigitlikka qadam qo'yar ekan Bobur Mirzo ulug' bobosi Sohibqiron Amir Temurning —Tuzuklarida qayd etilgan qo'shinni saflash, uni jangovar bir holatda g'animglarga qarshi jangga olib kirish yoki mustahkam qal'a mudofaasini sindirib uni zabt etish sir-sanoatlarini o'rganishlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bunda yosh Bobur Mirzo harbiy tarix ilmi, harbiy san'at xususida ancha mukammal tushunchalarga ega bo'ldi. Biroq Bobur o'zi qatnashib guvoh bo'lgan jangu jadal maydonlarida harbiy tajribalari, hatto muvoffaaqiyatsizlikka sabab bo'lgan mag'lubiyatlaridan ham saboq olishi, irodasini po'latdek mustahkamlab keyingi yuz beradigan janglarga avvalda yo'l qo'yilgan xatolarni takrolamaslikka intilishlari bir vaqtida o'zining mag'lubiyati va g'animgining g'olib kelishlarini harbiy ilm nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil etib chiqargan xulosalari uning kelajakda buyuk sarkardalar qatoridan o'rin olishadi o'ziga xos maktab vazifasini o'tadi[1]. Bobur o'z bobokaloni Amir Temur singari davlatining chegaralarini mustahkamlashga intilgan o'z yurtini qudratli davlatlar safida bo'lishini hohlagan turkiy xalqlarning eng kuchli hukmdoridir. Uning faoliyatiga to'xtalib o'tadigan o'tadigan bo'lsak u umri davomida juda ko'plab harbiy yurishlarni amalga oshirgan hukmdor sifatida tilga olinadi "Boburnoma" asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Boburning sarkardalik faoliyati boshlanishi 1494 - yilda Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon, Samarqand podshosi Sulton Ahmad Mirzo ittifoq tuzib, biri Sirdaryoning janubidan , ikkinchisi shimol, shimoldan Axsi ustida qo'shin tortadilar. Shu orada falokat yuz beradi. Axsi qo'rg'onida jar yoqasida turgan Umarshayx Mirzo kaptarxonasi bilan birga qulab, halok bo'ladi. Shu kundan boshlab u ulug' bobosi Amir Temurning buyuk davlatini qayta tiklash va mustahkamlashni maqsad qilib qo'ydi. Aynan Bobur hayotini ostin - ustun qilib yuborgan ko'p janglar ham Samarqand bilan bog'liq. 1495 - yilda Samarqand Sulton



Ali qo‘lida edi. Ammo amakilari Sulton Mas‘ud va Boysung‘ur Mirzolar ham Samarqand uchun kurash boshlaydilar. Amakivachchalaridan ilhomlangan Bobur ham bu kurash girdobiga qo‘shiladi. Bir muddat Samarqandni qamal qiladi. Ammo do‘stlik va sulh taklifi bilan chiqqan Sulton Alining so‘zini qabul qilib, ortga qaytadi. Boysung‘ur Mirzo esa Samarqandni egallaydi .1497 - yilda Bobur yana Samarqandga yurish boshlaydi. Boysung‘ur Mirzo Shayboniyxondan madad so‘raydi. Yetti oy davom etgan jangdan so‘ng Boburning qo‘li baland keladi. Ammo Boburning g‘alaba nashidasi uzoq davom etmaydi. Talon - taroj natijasida Samarqand nochor ahvolga tushib qoladi. Hattoki qo‘shin ta‘minotidan ham qiynalishadi. Natijada, uylarini ham sog‘ingan cherik ahli birin - ketin Andijonga qochib keta boshlaydi. Hatto, ishongan beklari - Ahmat Tanbal, Xonqulli, Ibrahim Bekchik kabilar ham Samarqandni tark etadi[2].

U o‘z yurti Mavarounnahr hududidan bosh olib chiqib ketgach oz sonli qo‘shini bilan juda ko‘plab hududlarni bo‘ysindiradi. Turkiy xalqlarni butun dunyoga tanitgan Bobur yurishlari ichidan eng kattasi uning Hindiston tomon yurishidir. Boburning Hindiston tomon yurishi hanuzgacha olimlar tomonidan baxs munozaraga sabab bo‘lib kelmoqda, uning faoliyatiga chuqurroq to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak Bobur Hindistonni egallash uchun to‘rt marotaba harakat qilib ko‘rgan.

Yani ular Hind zaminida asos solgan markazlashgan davlatning tarixi haqida so‘z yuritganda, mavzuni tarixan “Hindga yurishiga zamin yaratgan quydagi uch omil zikridan boshlashni farz deb bildik:

Biri bu – temuriylar inqirozidan keyin yuzaga kelgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy beqarorlik sharoitidagi feodal tarqoqligi asoratlari.

Ikkinchisi, bu- temuriyzodalarning sobiq saltanat hududida o‘z davlatining barpo etish maqsadidagi xatti-harakatlari.

Uchinchisi, bu nihoyat, “ Hindistonda qotib qolgan diniy aqidalar va turmush asosini tashkil qilgan o‘zgarmas ishtimoiy tartibning taraqqiyot jarayonini to‘xtatib qo‘yilganligi edi[3].



Zahriddin Muhammad so‘ngi yani, 1511-yilda Samarqand yurishi Boburning uchinchi va so‘ngi yurishi edi. Eron harbiy qismlari bilan birgalikda Movarounnahrda bostirib kirgan Bobur bu safar ham Samarqandni egallashga muvaffaq bo‘ladi, bir necha oy davomida hukmronlik ham qiladi. Ammo ruhoniylarning Boburni shia mazhabini qabul qilganlikda ayiblashlari natijasida avom xalq Boburdan yuz o‘giradi. Bobur Samarqandni tashlab chiqib, Kobulga qaytishga majbur bo‘ladi. Endi Boburning Movarounnahrda markazlashgan qudratli davlat tashkil etish yo‘lidagi orzuumidlari puchga chiqqan edi, ammo tinib-tinchimagan, hech vaqt noumid bo‘lmagan Bobur o‘z reja, maqsadlarini ona-Vatandan uzoq o‘lkalarda ro‘yobga chiqarishga qasd etadi, o‘z hokimatini temuriylarga qarashli Kobul muzofotidan ham ancha kegaytirish yo‘l-yo‘riqlarini axtaradi. Ko‘p mashvarat va maslahatlar tuzib, fikru mulohazalar qilib, oxiri Hindiston diyorini o‘z tasarrufiga kiritish ishiga bel bog‘laydi.

1525-yilda Bobur Rano Sango bilan ittifoq tuzib, Shimoliy Hindistonni egallash maqsadida Ibrohim Lo‘diyga qarshi jangga kirdi. 1525-yil kech kuzda Bobur Panjobni bo‘ysundirdi, 1526-yilda Panipat qishlog‘i yaqinidagi birinchi jangda Boburshoh qo‘shini Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning ukasi Mahmud Lo‘diy qo‘shini ustidan g‘alaba qozonib, Bengal shohi Nusratshoh bilan do‘stona aloqalarni o‘rnatdi. 1526-yil apreldagi Panipat jangida Bobur asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning 100 ming kishilik qo‘shinini o‘zining 12 minglik askari bilan tor-mor qiladi hamda Dehlini egallaydi. 1527-yil martda Bobur Sikri yaqinidagi jangda rajputlar sardori Rano Sango qo‘shinini tor-mor etib, butun Shimoliy Hindiston bo‘ysundurdi.

Zahiriddin Bobur Hindistonda Boburiylar imeriyasiga asos solish bilan birga, pochta-aloqa sohasiga ham jiddiy o‘zgartirishlar kiritdi, vaqt birligiga yangilik joriy etdi, arxitekturada Movarounnahr me‘morlik uslublarini qo‘lladi, milliy artilleriya, harbiy-dengiz flotiga asos soldi.

Bobur tomonidan Shimoliy Hindistonda asos solingan davlat G‘arbiy Yevropa tarixiy adabiyotida (taqlid qilingan holda rus olimlarining asarlarida ham) “Mo‘g‘ullar davlati” va



ko‘proq “Buyuk mo‘g‘illar imperiyasi” deb nomlanadi. Aslida, Bobur asos solgan va uning avlodlari tomonidan idora qilingan davlatni tarixiy nuqtayi nazardan “Boburiylar davlati” deb atash maqsadga muvofiqdir.[4]

Foydalangan adabiyotlar:

1. Raximov J. Zahiriddin Muhammad Boburning buyuk sarkardalik salohiyati / J.Raximov // Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va merosini o‘rganish dunyo 164 talqinida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. Milliy Gvardiyasi harbiytexnik instituti. - 2021 yil 12 fevral 1-qism. – B. 19.
2. N. Jumaxo‘ja, I. Adizova “O‘zbek Adabiyoti Tarixi” - XVI - XIX asr I yarmi “Noshir” nashriyoti, Toshkent-2019.
3. N. G‘. Nizomiddinov. (XVI-XIX asr) Buyuk Boburiylar tarixi. 68-70 bet
4. Низомиддинов И. Бобирийлар давлати. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983.
5. Khayrullayevich, N. A. (2023). Cooperation of the Shanghai Cooperation Organization in the Field of Education. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 358-364.
6. Нигматов, А. Х. (2021). МУЗЕЙНАЯ ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИИ ИНФОРМАТИЗАЦИИ. ББК 72 К 59, 79.
7. Sh.Parmonov Buxoro amirligi siyosiy jarayonlarida Shahrisabz bekligining tutgan o‘rni.Monografiya Toshkent Grand Kondor Print 2023.
8. Botirova Halima Eshmamatovna, Parmonov Sharofiddin Shavkatovich Journal of Advanced Zoology Ethnic History of Shakhrisabz Province at The Beginning of The Xix-Xx Centuries.